
Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan barchangizni samimiy muborakbod etaman

Hurmatli hamkasblar, aziz talabalar!

Mustaqillik xalqimizga o'z yo'lini tanlash, taqdirini o'zi belgilash imkonini berdi. Shu bois mustaqilligimizning **34 yilligi** **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun"** degan yuksak shior ostida nishonlanayotgani bejiz emas. Bu shior bugungi taraqqiyotimizning mazmunini, xalqimizning ezgu intilishlarini ifodalaydi.

Prezidentimiz rahnamoligida ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham ana shu ezgu chaqiriqlarning zamonaviy davomidir. Biz ziyolilar ham mazkur yangilanishlar pallasida yurtboshimiz yonida turib, ezgu ishlarga kamarbasta bo'lmog'imiz shart.

Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan barchangizni samimiy muborakbod etar ekanman, sizlarga sog'lik, ilmiy va ijodiy faoliyatingizda yangi yutuqlar, ulkan zafarlar tilayman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin! Yaratganning o'zi go'zal yurtimizni va mehnatkash xalqimizni panohida asrasin!

Dilshodxon Islomov,

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ijrochi direktori.